

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03.29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

RIZAYEV AZIZJON RAXIMDJANOVICH

SAUDIYA ARABISTONI MILLIY IDENTIFIKATSIYASINING
XAVFSIZLIK PARADIGMASI

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Qo'lyozma huquqida
UO'K: 323.2:327 (532)
КБК: 66.4 (5 Sau)
R-65

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)
по политическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in Political Science**

Rizayev Azizjon Raximdjanovich

Saudiya Arabistoni milliy identifikatsiyasining xavfsizlik paradigmasi 3

Ризаев Азизджон Рахимджанович

Парадигма безопасности национальной идентификации
Саудовской Аравии 23

Rizaev Azizdjon Rakhimdjanovich

Security Paradigm of Saudi Arabia's National Identification 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03.29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

RIZAYEV AZIZJON RAXIMDJANOVICH

SAUDIYA ARABISTONI MILLIY IDENTIFIKATSIYASINING
XAVFSIZLIK PARADIGMASI

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ss456 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsuos.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdullayev Nodir Abdulxayevich**
siyosiy fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Muhammadsiddiqov Muhammadolim**
Muhammatroziq o'g'li
siyosiy fanlar doktori, professor

Abdullayev Ulug'bek Artikbayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03.29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent sh., Shaxrisabz ko'chasi, 16. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: info@www.tsuos.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Shaxrisabz ko'chasi, 16. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "___" _____dagi ___-raqamli reestr bayonnomasi).

D.B. Sayfullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tarix fanlari doktori, professor

D.I. Madaminova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
siyosiy fanlar doktori, dotsent

E.S. Sultonova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan global jarayonlar keng ko‘lamli siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda hamda ular mamlakatlar, xalqlar, madaniyatlar va konfessiyalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikda milliy identiklikka tahdidlar masalalari sezilarli o‘rin egallab kelmoqda. Davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatida an’anaviy harbiy va iqtisodiy omillar bilan bir qatorda, milliy-madaniy resurslar, jumladan, tarixiy meros, til, din va madaniy qadriyatlar diplomatik vositalar sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tendensiya hozirgi xalqaro munosabatlarida yangicha xavfsizlik va diplomatik paradigmalarni shakllanayotganidan dalolat bermoqda. Milliy identiklik arab olamidagi o‘zgarishlarning integral komponenti sifatida namoyon bo‘lib, Yaqin Sharqdagi xalqaro munosabatlar tizimi rekonfiguratsiyasiga, xususan, Saudiya Arabistoni Podshohligining ichki va tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatmoqda hamda milliy xavfsizlik, hokimiyat legitimligi, siyosiy barqarorlik masalalarining dolzarbligini oshirmoqda.

Saudiya Arabistoni Podshohligi tashkil etilganidan buyon mamlakat milliy identikligining konseptual asoslari, xavfsizlik paradigmasi, ramziy va lingvistik jihatlari, shuningdek, xalqaro-siyosiy identikligi va diniy komponentlari ilmiy muammo sifatida keng tadqiq etilmoqda. Ularda mamlakatdagi Ol Saud va Ol ash-Shayx sulolalari davlatning asosiy siyosiy elitasi bo‘lib shakllanishi, rivojlanish jarayonlari, ularning davlatchilikni mustahkamlash, milliy identiklikni saqlash, ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqish, xalqaro nufuzini oshirish, xavfsizlikni ta’minlashdagi roli, Saudiya jamiyatida islom dinining o‘rni, barqaror rivojlanishi, demokratiya va siyosiy modernizatsiya bilan bog‘liq jihatlarni, davlat va din munosabatlarini tartibga solishni, islohotlar samaradorligi va yangicha tahdidlarni bartaraf etish mexanizmlarini ilmiy muammo sifatida tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosat strategiyasida xorijiy davlatlar, xususan, Saudiya Arabistoni Podshohligi bilan o‘zaro manfaatli va konstruktiv hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi, shuningdek, bu borada amalga oshirilgan diplomatik faoliyat natijasida sezilarli tajriba to‘planib, ikki tomonlama aloqalarning konseptual asoslari shakllantirildi va amaliy mexanizmlari takomillashtirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning birdamligini ta’minlash, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarga barham berish, urushlar, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda sa’y-harakatlarni birlashtirish tobora avj olayotgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, tinchlik va barqarorlikka tahdid solayotgan xavflarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi”¹. Globallashtirish jarayonlari va zamonaviy geosiyosiy tahdidlar sharoitida Saudiya Arabistonining milliy-madaniy merosni muhofaza qilish, ma’naviy qadriyatlarni asrash orqali milliy identiklikni saqlab qolish borasidagi strategik yondashuvlarini xavfsizlik paradigmasi nuqtayi nazaridan kompleks tadqiq etish zamonaviy siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar nazariyasi nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-sha-18-10-2016>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019-yil 15-noyabrdagi “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5876-son, 2018-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning ma‘suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5400-son va 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680 sonli qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirga qadar Saudiya Arabistoni milliy identikligini o‘rganish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Saudiya Arabistonining milliy-madaniy merosni muhofaza qilish, ma‘naviy qadriyatlarini asrab-avaylash orqali milliy identiklikni saqlab qolish borasidagi strategik yondashuvlari qator mahalliy va xorijiy mamlakatlarning ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Saudiya Arabistoni xavfsizlik va strategik tadqiqotlar markazi (SAP), “Al-Jazira” tadqiqot markazi (Qatar), “Al-Ahrom” siyosiy va strategik tadqiqotlar markazi (Misr), Strategik tadqiqotlar markazi (BAA), Milliy tadqiqotlar instituti (Eron), Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi (AQSH), Sharqshunoslik instituti (Rossiya), Ijtimoiy fanlar akademiyasi (Xitoy)da muhim ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Arab davlatlarida identiklik muammosini o‘rganish doirasida bir nechta – Qohira, Bayrut, Mag‘rib, Ko‘rfaz (SAP, Qatar), Damashq, Bag‘dod maktablari shakllangan. Ular tomonidan milliy va diniy identiklikning o‘zaro ta‘sirini, uning ko‘p konfessiyali jamiyatlarda shakllanishini, postkolonial identiklik masalalarini, modernizatsiya sharoitida an‘anaviy va zamonaviy identikliklar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni tadqiqi etishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Arab davlatlari, shu jumladan, Saudiya Arabistoni milliy identikligini tadqiq etishga bir qancha maqolalar va adabiyotlar bag‘ishlangan bo‘lib, dissertatsiya doirasida o‘rganib chiqilgan o‘zbekistonlik va xorijlik olimlarning ilmiy ishlarini muammoviy-xronologik asosda to‘rt guruhga (tillar kesimida – o‘zbek, rus, ingliz, arab) ajratish maqsadga muvofiq². Bunda birinchi va qisman ikkinchi guruhga kiritilgan adabiyotlar va manbalar dissertatsiyani tayyorlashga ilmiy-uslubiy

² Ushbu adabiyotlar va ularning mualliflari ilmiy ishlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

ko‘mak bergan bo‘lsa, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi guruhda ko‘rsatilgan ilmiy ishlar tadqiqot uchun bevosita faktologik material bo‘lib xizmat qildi.

Birinchi guruh tadqiqotlarida O‘zbekiston va arab-musulmon jamiyatlarining milliy identiklikni shakllantirish va o‘zlikni tanish ma‘naviy qadriyatlarining yosh avlod tarbiyasiga ta’siri muammosi falsafa, tarix, filologiya va siyosiy fanlar doirasida alohida ko‘rib chiqilgan. Xususan, o‘zbekistonlik olimlardan Sh.Madayeva, T.Jo‘rayev, M.Quronov, V.Qo‘chqorov, Q.Nazarov, I.Ergashev, Z.Odinayeva, N.Nazarov, H.Yuldasheva, R.Xodjayeva, G.Mutalova, R.Sharipov, B.Xasanov³ va boshqalar tomonidan mazkur mavzuda tadqiqotlar olib borilgan.

Ikkinchi guruhga kiritilgan ilmiy ishlar Rossiya, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo respublikalarida rus tilida chop etilgan bo‘lib, ularda dissertatsiya mavzusiga oid masalalarning keng o‘rganilganligi mazkur MDH davlatlari ilmiy doiralarida ushbu muammoni tadqiqat etishga katta qiziqish majudligini ko‘rsatadi. Bu borada rossiyalik olimlardan I.D.Zvyagelskaya, D.Jantiyev, A.A.Jeleznov, G.G.Kosach, I.Kudryashova, V.Naumkin, A.Filonik, A.Yakovlev⁴kabi, shuningdek, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Tojikiston va Turkmaniston olimlaridan R.Mextiyev, M.Shaykemelev, K.Burxanov, B.Torogeldiyeva, A.Maxmadov, K.Olimov, A.Djikiyev M.Annanepesov⁵ va boshqa tadqiqotlarini zikr etish mumkin.

³ Мадаева Ш.О. Идентиклик антропологияси. –Т.: “Ношир”, 2015. – 176 б.; Yuldasheva H.A. Arab adabiyotida milliy identiklikning badiiy talqini masalalari. –Т.: “Donishmand ziyosi”, 2024, – 243 b.; Отамуродов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Т.: «Ўзбекистон», 2015, 373 б.; Одинаева З.И. Ўзбек миллий идентиклиги аксиологик тамойиллари ва қонуниятларига фалсафий концептуал ёндошув: фалсафа фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. –Т.: 2020. –С. 48.; Ходжаева Р. Мамлуклар даври араб адабиёти (XIII-XV асрлар) – Т. 2013. - 156 б.; Муталова Г.С. Герои арабских племенных сказаний «Аййам ал-араб» // Шарк машъали. -Т. 2020. – № 1. – С. 28-40.; Sharipov R. “Jadid adabiyotida yangilanish, islohot va mustaqillik uchun kurash g‘oyalarining aks etishi” fan.b.fals.dok. diss.avtoref. –Т.: – 2020. – 71 б.; Қўчқоров В. Миллий ўзликни англаш барқарорлик ва тараққиёт омили. –Т.: “Академиа”, 2017. – 42 б.; Назаров Н. Мустақиллик ва этноижтимоий жараёнлар. –Т. 2005. – 76 б.; Эргашев И. Миллий ғоя ва мафкура. –Т.: “Академия”, 2017, – 280 б.; Қуронов М. Миллий тарбия. –Т.: “Маънавият”. 2018, – 320 б.; Назаров Қ. Аксиология: қадриятлар фалсафаси. –Т.: “Файласуфлар миллий жамияти”. 2015, – 384 б.; Жўраев Т. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти: назария ва амалиёт. –Т.: “Академиа”. 2020, – 304 б.; Ҳасанов Б. Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.: “Янги аср авлоди”. 2016, – 192 б.

⁴ Ближний Восток: Политика и идентичность. Коллективная монография / Под ред. И.Д.Звягельской / ИМЭМО РАН. –М.: Издательство «Аспект Пресс», 2020. -С. 136.; Жантйев Д. Роль семейства Ааль аш-Шейх в религиозно-политической жизни Саудовской Аравии // Вестник Московского университета. Сер. Востоковедение. –М., 2006 г. №4, сер. 13, с. 25-32.; Железнов А.А. Король Сальман бин Абдель Азиз и новый баланс сил в саудовском руководстве. // Институт Ближнего Востока и Израиля. 29.01.2015г.; Косач Г.Г. Саудовская Аравия: государство и конструирование «национальной идентичности» // Культурная сложность современных наций. –М.: Политическая энциклопедия, 2016. С. 362.; Кудряшова И.В. Политические изменения и трансформация идентичности в странах мусульманского Востока // Политическая идентичность и политика идентичности: В 2 т. Т. 2: Идентичность и социально-политические измерения в XXI веке / Отв. ред. И.Семененко. -М.: РОССПЭН, 2012. С. 155-183.; Наумкин В.В. Современный конвергентный арабский национализм в зеркале исторической памяти. - Полис. Политические исследования. 2021. № 6. С. 49.; Филоник А.О. Саудовская Аравия: поиски внутренней гармонии. // Ближний Восток и современность. Сборник статей (выпуск 32). – М., 2007. – С. 236.; Яковлев А.И. Саудовская Аравия: пути эволюции. –М.: 1999, 70 с.

⁵ Мехтйев Р. О национальной идее Азербайджана. –Баку: Шарг-Гарб. 2014, -С. 248.; Шайкемелев М.С. Казахская идентичность. –Алматы: Институт философии, политологии и религиоведения КН МОН РК. 2013, -С. 272.; Бурханов К.Н. Национальная идентичность и общественное согласие в Казахстане. –Астана: Академия государственного управления при Президенте РК. 2018, -С. 184.; Махмадов А.Н. Национальная идентичность в контексте политических процессов в Таджикистане. –Душанбе: “Дониш”. 2018, -С. 176.; Олимов К. Проблемы национальной идентичности таджиков. –Душанбе: РТСУ. 2015, -С. 184.; Торогельдиева Б.М. Формирование гражданской идентичности в полиэтничном кыргызстанском обществе // Развитие территорий. 2017, №1 (7), с. 12-17.; Джикйев А. Традиционные туркменские общества. –Ашхабад:

Uchinchi guruhga ingliz tilida AQSH va Yevropa davlatlarida Saudiya Arabistonidagi milliy identiklik, din, siyosat, gender masalalari va boshqa ijtimoiy-siyosiy mavzular doirasida chop etilgan ilmiy tadqiqotlar kiritilgan bo'lib, ular orasida P.Arts, Ye.A.Doumato, S.Lakroiks, T.Metizen, R.Mejer, J.Nevo, T.Niblok, J.Vegemeykers, M.Yamani⁶ va boshqa olimlarning ilmiy ishlari e'tiborga molik.

To'rtinchi guruhdagi ilmiy ishlarni Saudiya Arabistoni, Misr, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari va Livan kabi arab davlatlaridagi milliy identiklik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar tashkil etib, ular orasida Fahd ash-Shamriy, Saad al-Qahtaniy, Fahd al-Harbiy, Abdulaziz al-Umriy, Muhammad Said, Sulton bin Muhammad al-Qosimiy, Salim an-Nuaymiy, Turkiy ad-Duxayl, Abdulloh al-G'izamiy⁷ va boshqa shular kabi olimlarning ilmiy ishlarini ko'rsatish mumkin.

Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida mazkur tadqiqotchilarning nazariy xulosalari va konseptual mulohazalari chuqur tahlil qilingan. Umuman olganda, dissertatsiya mavzusining u yoki bu jihatlarini ochib beruvchi xorijiy tillarda tayyorlangan materiallar mavjud bo'lsa-da, tahlillar Saudiya Arabistoni milliy indentikligining xavfsizlik paradigmasini kompleks o'rganuvchi va uning mazmunini ochib beruvchi tadqiqotlar yetarli emasligini ko'rsatdi. Yuqoridagi ilmiy ishlarni e'tirof etgan holda ta'kidlash joizki, mazkur mavzuni yoritgan har bir tadqiqotchi muammoni, avvalo, o'z mamlakatining milliy manfaatlarini nuqtayi nazaridan o'rgangan. Xorijda bu sohada ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan va ma'lumotlar to'plangan bo'lsa-da, O'zbekistonda ushbu mavzu alohida tadqiq etilmagan. Muammoning katta nazariy va amaliy ahamiyati, dolzarbligi va to'liq o'rganilmaganligi tadqiqot uchun ushbu mavzu tanlanishiga asos bo'lgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 10-raqamli "Sharq mamlakatlarida kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning o'ziga

"БЛЫМ". 2016, -С. 288.; Аннанепесов М. История и культурное наследие туркменского народа. Ашхабад: "БЛЫМ". 2015, -С. 456.

⁶ Aarts P., Nonneman G. Saudi Arabia in the balance: political economy, society, foreign affairs. New York: NYU Press. 2005, 462 p.; Al-Rasheed M. A most masculine state: Gender, politics and religion in Saudi Arabia. Cambridge: Cambridge University Press. 2013, 333 p.; Doumato E.A., Posusney M.P. Women and globalization in the Arab Middle East: gender, economy, and society. Boulder, CO: Lynne Rienner Publishers. 2003, 329 p.; Lacroix S. Awakening Islam: The politics of religious dissent in contemporary Saudi Arabia. Cambridge, MA: Harvard University Press. 2011, 384 p.; Matthiesen T. The other Saudis: Shiism, dissent and sectarianism. Cambridge: Cambridge University Press. 2015, 304 p.; Meijer R. Reform in Saudi Arabia: The gender-segregation debate. Middle East Policy, Washington, D.C.: Middle East Policy Council. 2010, №17(4), p. 80-100.; Nevo J. Religion and national identity in Saudi Arabia. Middle Eastern Studies. London: Frank Cass Publishers. 1998, 34(3), p. 34-53.; Niblock T. Saudi Arabia: Power, legitimacy and survival. London: Routledge. 2006, 240 p.; Wagemakers J. Defining the enemy: Abu Muhammad al-Maqdisi's radical reading of Surat al-Mumtahana. Die Welt des Islams, Leiden: Brill. 2012, №52(1), p. 1-29.; Yamani M. Changed identities: The challenge of the new generation in Saudi Arabia. London: Royal Institute of International Affairs. 2000, 170 p.

⁷ الشمري فهد. الهوية الوطنية السعودية: التحديات والمستقبل. دبي: مركز الخليج للأبحاث. (2018). 180 صفحة؛ القحطاني سعد. الإعلام والهوية الوطنية في السعودية. الرياض: دار جامعة الملك سعود للنشر. (2015). 210 صفحة؛ الحربي فهد. الشباب السعودي والهوية الوطنية في عصر العولمة. مكة المكرمة: جامعة أم القرى. (2016). 200 صفحة؛ العمري عبد العزيز. السياسة الخارجية السعودية وتأثيرها على الهوية الوطنية. الرياض: معهد الدراسات الدبلوماسية. (2018). 175 صفحة؛ محمد أحمد سيد. الهوية الوطنية في الخليج العربي: دراسة حالة المملكة العربية السعودية. القاهرة: مركز الأهرام للدراسات السياسية والاستراتيجية. (2018). 220 صفحة؛ القاسمي سلطان بن محمد. الهوية الوطنية في دول مجلس التعاون الخليجي. الشارقة: دار القاسمي للنشر. (2019). 230 صفحة؛ النعيمي سالم. التعليم ودوره في تعزيز الهوية الوطنية: دراسة حالة الإمارات العربية المتحدة. دبي: كلية محمد بن راشد للإدارة الحكومية. (2017). 185 صفحة؛ الدخيل تركي. السعودية والعالم العربي. بيروت: دار الساقى. (2011). 240 صفحة؛ الغدامي عبدالله. الثقافة التلفزيونية: سقوط النخبة وبروز الشعبي. الدار البيضاء: المركز الثقافي العربي. (2004). 288 صفحة.

xos xususiyatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri" mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Saudiya Arabistoni milliy identikligining xavfsizlik paradigmasini kompleks tahlil etish orqali, uning o'zaro bog'liqligi, genezisi, evolyutsiyasi, asosiy komponentlari va hozirgi sharoitdagi transformatsiyasini hamda mazkur fenomenning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga ta'siri mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Mazkur maqsadga erishish uchun dissertatsiyada quyidagi vazifalar belgilandi va bajarildi:

Milliy identiklik tushunchasining nazariy-konseptual asoslarini tizimli tahlil qilish va uni o'rganishning yangi ilmiy va uslubiy yondashuvlarini konseptuallashtirish;

Panarab mafkurasining Yaqin Sharq mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasidagi transformativ rolini kompleks tadqiq etish

Saudiya Arabistoni milliy identikligining diniy komponentini o'rganish va uning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini baholash;

Saudiya Arabistoni milliylik mafkurasining genezisi va evolyutsiyasini tahlil qilish;

Ta'lim va madaniyat sohalarining Saudiya milliy identikligiga ta'sirini o'rganish va ularning zamonaviy tahdidlar sharoitidagi funksional rolini aniqlash;

Saudiya Arabistonining xalqaro-siyosiy identikligini diniy-siyosiy transformatsiya jarayonlari kontekstida geosiyosiy va geostrategik nuqtayi nazardan tadqiq etish;

Saudiya identikligining semiotik va lingvistik jihatlarini tahlil qilish va ularning milliy o'zlikni anglash jarayonidagi kognitiv funksiyalarini ochib berish;

Saudiya Arabistoni milliy identikligiga bo'lgan tahdidlarni aniqlash va ularning mamlakat milliy xavfsizligiga ta'sirini baholash;

Saudiya Arabistoni milliy identikligining istiqbollari va uning xavfsizlik paradigmasidagi strategik ahamiyatini aniqlash hamda O'zbekiston-Saudiya Arabistoni munosabatlarini yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyeksi etib Saudiya Arabistonining milliy identikligi va uning mamlakat xavfsizlik paradigmasi bilan o'zaro aloqadorligi kabi masalalar belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Saudiya Arabistoni milliy identikligining shakllanish jarayonlari, asosiy komponentlari, zamonaviy transformatsiyasi va uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik dinamikasiga ta'siri tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada siyosatshunoslikka oid tizimli tahlil, tarkibiy funksional hamda qiyosiy-tarixiy tahlil va boshqa ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

arab davlatlari, jumladan, Saudiya Arabistonida milliy identiklik davlat qurilishi, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimi kontekstida o'rganiladigan fanlararo tushuncha bo'lib, tarixiy o'tmish, siyosiy tuzum, madaniy an'analar hamda xulq-atvor stereotiplari va milliy meros bilan bog'liq konseptual komponentlardan iboratligi aniqlangan;

Saudiya milliy identikligining xavfsizlik paradigmasi islom aqidasi va ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar, Ol Saud oilasi legitimligi, arab etnolingvistik ustuvorligi, ijtimoiy iyerarxiya, iqtisodiy barqarorlik, mintaqaviy gegemoniya, strategik hamkorlik, geosiyosiy raqobat, ekstremizmga qarshi kurash hamda

modernizatsiya va an'analar o'rtasidagi muvozanatni saqlash kabi o'zaro aloqador elementlar tizimidan tarkib topganligi ochib berilgan;

diniy me'yorlar va urf-odatlar zamonaviy o'zgarishlar hamda muammolar bilan o'zaro ta'sir qilib, Saudiya Arabistoni identikligida o'ziga xos sintez yaratishi va globallashuv sharoitida milliy o'zlik jamiyatning mustahkam va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni ta'minlovchi ko'p qirrali, dinamik va integratsion omil ekanligi ilmiy asoslangan;

Saudiya Arabistonida milliy identiklikni shakllantirishda milliylik mafkurasiga tayanilishi, unda mamlakatning tarixiy, siyosiy va diniy-madaniy xususiyatlari aks etishi, shuningdek, demokratik tamoyillarni joriy etish yondashuvining islom aqidasi asoslanganligi va Podshohlikning ijtimoiy-siyosiy kontekstiga moslashtirilganligi hamda ushbu modelning milliy birlik va suverenitetni saqlab qolishga qaratilgan islohotlar strategiyasi asosida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

siyosiy fanlarda tan olingan metodologiya va fanlararo yondashuvlar asosida Saudiya Arabistoni milliy identikligining xavfsizlik paradigmasini tadqiq etish hamda jamiyatni tashqi g'oyaviy tahdidlardan himoya qilish, yoshlarni milliy-ma'naviy an'analarga mos tarbiyalash jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan nazariy-metodologik jihatlar aniqlangan;

Saudiya Arabistoni tajribasini o'rganish asosida xavfsizlik va barqarorlikka qarshi yangicha mafkuraviy tahdidlar, jamiyatning izchil rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar, xalqaro-siyosiy transformatsiya yo'nalishlari, bunda diniy omilning milliy identiklikka ta'siri, roli va o'rni haqida ilmiy xulosalar chiqarilib, tegishli amaliy takliflar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda siyosiy fanlarda e'tirof etilgan yondashuv va usullar qo'llangani, ilmiy adabiyotlardan foydalanilgani, mavzuga oid xorijiy tillardagi birlamchi manbalarga asoslanilgani, shuningdek respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-metodologik hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari to'plamlarida, OAK ro'yxatiga kiritilgan va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarda e'lon qilingan xulosalarning, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan dalillanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning *ilmiy ahamiyati* arab davlatlaridagi siyosiy jarayonlar, ularning tashqi siyosati va Yaqin Sharq mintaqasidagi muammolarga hamda arab jamiyatlarini demokratlashtirish jarayonlariga oid ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

Dissertatsiya natijalarining *amaliy ahamiyati* Yaqin Sharq mintaqasini tadqiq etishga ixtisoslashgan tashkilotlar, olim va ekspertlar, milliy va mintaqaviy xavfsizlik, milliy identiklik, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash masalalari bilan bevosita shug'ullanadigan davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalari, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatida Saudiya Arabistonining ichki va tashqi siyosatiga doir tahliliy ma'lumotnomalar tayyorlash, oliy ta'lim muassasalari uchun "Jahon siyosati", "Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlari", "Sharq mamlakatlari taraqqiyoti tarixining tizimli tahlili"

kabi fanlardan ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanmalari va darsliklar yaratishda muhim manba sifatida foydalanish mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Saudiya Arabistoni milliy identikligining xavfsizlik paradigmasini tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

globalashuv sharoitida milliy identiklikni saqlab qolish va rivojlantirish Saudiya Arabistoni rahbariyatining ustuvor vazifalaridan biri ekanligi va bunday sharoitda Podshohlikning ichki va tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda milliy o'zlikni markaziy omil sifatida qo'llashi, uni mamlakat barqarorligi, xavfsizligi va xalqaro nufuzini ta'minlash manbasi deb hisoblashi borasidagi asosiy ilmiy yangiliklar O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tomonidan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 24-apreldagi 18/157-sonli ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston Respublikasi va Saudiya Arabistoni o'rtasida diplomatik munosabatlarni olib borish, Saudiya milliy identikligining mamlakat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashdagi roli, shuningdek, Podshohlikni tashqi tahdidlardan saqlab qolish va rivojlantirishning siyosiy-huquqiy mexanizmlari milliy hamda xalqaro darajada yetarli shakllanmagani ularni takomillashtirish zarurati mavjudligi borasidagi xulosalarni ilmiy asoslashga xizmat qilgan;

Saudiya Arabistonidagi milliy hamda diniy qadriyatlarni saqlab qolish va modernizatsiya, islohotlar tarafdorlari o'rtasidagi ziddiyatlar mamlakatni tashqi ta'sirlarga nisbatan zaiflashuviga, hududiy parchalanishiga, yoshlar va an'anaviy elita o'rtasidagi tafovut iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir qilayotganligi, suverenitetiga xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarga qarshi shaffof institutsional, davlat boshqaruvi tizimi resurslaridan samarali foydalanish, xalq manfaatlariga asoslangan xavfsizlik tizimini yaratish borasidagi tadqiqot natijalari va xulosalari Xalqaro munosabatlar bo'yicha axborot-tahlil markazi tomonidan arab davlatlari ichki va tashqi siyosati, ijtimoiy-siyosiy jarayonlari bo'yicha hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan (XMATM 2024-yil 20-martdagi 01/42-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ichki siyosiy masalalarni hal qilish muammolari, jamiyatning etnik va konfessional o'ziga xosligini inobatga olish zarurati, ularning mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri, axborot xavfsizligi va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlashga xizmat qilgan;

Saudiya Arabistoni milliy identikligida umumarab va islom ummasi birligi g'oyalari muhim o'rin tutishi, milliylik g'oyalarini targ'ib qilish Saudiya ruhoniyligi vakillarining Podshohlikdagi hukmron mavqegini va ichki siyosatga ta'sirini kamaytirishga qaratilgani, Ar-Riyod milliy identiklikni shakllantirishda an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot o'rtasida muvozanatni saqlashga intilishi borasidagi xulosalardan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi Siyosiy kengashi ijroiya qo'mitasi xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rgangan holda qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish hamda siyosiy jarayonlarga oid axborot-tahliliy hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan. (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi Siyosiy kengashi ijroiya qo'mitasining 2024-yil 20-martdagi 01-27/171-sonli ma'lumotnomasi). Natijada partiya faoliyatini tizimli tashkil etish, jamiyatda siyosiy islohotlarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish,

davlat organlari o‘z faoliyatida inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan boshqaruv mexanizmiga tayanish zaruriyati bo‘yicha takliflar tayyorlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro darajadagi va 3 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (ulardan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘qqiz paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Arab mamlakatlari milliy identikligini tadqiq etishning nazariy-metodologik jihatlari”** deb nomlangan birinchi bobida arab mamlakatlari milliy identikligini tadqiq etishning nazariy asoslari, uning uslublari va metodologiyasi Samyuel Xantington, Edvard Said, Bassam Tibiy, Fuad Ajamiy⁸ kabi yetakchi olimlarning sivilizatsiyalar to‘qnashuvi, oriyentalizm nazariyasi hamda arab milliyliigi, arab siyosiy fikri konsepsiyalari nigohida tahlil qilinib, mazkur tendensiyalar ta‘sirida shakllangan Saudiya Arabistoni milliy identikligining xavfsizlik paradigmasi genezisi, evolyutsiyasi va transformatsiyasi o‘rganilgan. Xususan, milliy identiklik fenomenini baholashda foydalaniladigan hozirgi konseptual yondashuvlar siyosiy jarayonlar hamda tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan.

Qayd etilshicha, arab davlatlarining rivojlanish tarixi, siyosiy jarayonlarning yo‘nalishi panarabizmida dunyoviy tamoyillar oshganligini ko‘rsatadi. Biroq arab dunyosining milliy mafkurasi va siyosati millatchilik va diniy tabiati tufayli dinning ommaga kuchli ta‘siridan tashqarida bo‘lishi mumkin emas. Arab mamlakatlari milliy identikligi globallashuv va modernizatsiya jarayonlari sharoitida tarixiy, diniy, madaniy va siyosiy omillarning o‘zaro ta‘siri natijasida shakllanib bormoqda. Islom dini, arab tili va madaniyati uning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Biroq kolonial davr, mustaqillik uchun kurash, modernizatsiya jarayonlari va globallashuv ta‘sirida bu identiklik doimiy ravishda o‘zgarib kelmoqda. Shu bois dissertatsiyada arab mamlakatlari ilmiy jamiyatida milliy identiklik tushunchasi ko‘p qirrali fanlararo tushuncha bo‘lib, tarixiy o‘tmish, madaniy an‘analalar, xulq-atvor stereotiplari va qadriyatlar bilan bog‘liq ko‘plab konseptual komponentlarni o‘z ichiga olishi ta‘kidlanadi. Milliy identiklik jamiyat ma‘naviyatining barqaror rivojlanishining muhim omilidir, ammo shu bilan birga milliy identiklik darajasi beqaror, chunki bu ijtimoiy hayot sharoitlariga bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi.

Arab dunyosi, shu jumladan, Saudiya Arabistonidagi identiklik masalalarini tushunish uchun turli nazariy-metodologik yondashuvlarning integratsiyasi zarur. Ularnig sintezi arab mamlakatlaridagi identiklik muammosini har tomonlama va chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Zero, konstruktivizm nazariyasi identiklikning

⁸ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. – М.: “Издательство АСТ”, 2003. – 603 с.; Саид Э. Ориентализм. – СПб.: “Русский Мир”, 2005. – 141 с.; Tibi B. Arab Nationalism: Between Islam and the Nation-State. - Palgrave Macmillan London, 1997, R. 365; Ajami F. The Dream Palace of the Arabs: A Generation’s Odyssey. Pantheon Books, 1998, R. 348; ساطع الحصري آراء وأحاديث في العلم والأخلاق والثقافة. — مؤسسة هنداوي للطباعة والنشر 1951 عام. — 152 ص.

ijtimoiy konstruktsiya ekanligini, postkolonial nazariya mustamlaka davri merosining ta'sirini o'rganishda, siyosiy realizm va ijtimoiy identiklik nazariyalari guruh dinamikasi va guruhlararo munosabatlarni hamda davlat manfaatlarini va xavfsizlik masalalarini tahlil qilish, an'anaviy jamiyatlarning transformatsiyasini tushunishga yordam beradi

Ushbu bobda turli manbalar tahlili asosida zikr etilishicha, globallashtirish, migratsiya jarayonlari, ijtimoiy me'yorlar va gender rollarining o'zgarishi, shuningdek, diniy ekstremizm muammolari milliy o'ziga xoslikka qo'shimcha ta'sir ko'rsatmoqda. Bu dinamik va ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarga javoban o'zgarishi mumkin. Din Saudiya Arabistoni milliy identikligini shakllantirish hamda jamiyatning madaniy, diniy va mafkuraviy asosi sifatida muhim o'rin tutadi. Diniy me'yorlar va urf-odatlar zamonaviy o'zgarishlar va muammolar bilan o'zaro ta'sir qilib, mamlakat idetnikligida o'ziga xos sintez yaratadi. Yoshlar kelajakdagi milliy identiklikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Saudiya Arabistonidagi ta'lim muassasalari tarix, madaniyat va dini o'qitish orqali milliy identiklikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalari, ta'lim, san'at va madaniyat milliy identiklikni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular hamjamiyat va tegishlilik tuyg'usini kuchaytiradigan ramzlar, me'yorlar va qadriyatlarni yaratadilar.

Vatanparvarlik o'z vatani va millatiga hissiy bog'lanish sifatida milliy identiklikning asosiy elementidir. Bunday sharoitda milliy identiklikni inson huquqlari, demokratiya va barqaror rivojlanish kabi global qadriyatlar bilan taqqoslash dolzarb bo'lib bormoqda. Milliy o'ziga xoslikning ayrim elementlari umuminsoniy global qadriyatlarga zid bo'lishi mumkin. Davlat mafkurasi, ichki va tashqi siyosiy qarorlar mamlakat qiyofasini va unga daxldorlik tuyg'usini shakllantiradi. Iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy harakatchanlik fuqarolarning o'z shaxsiyatidan qoniqish va g'ururlanish darajasiga ta'sir qiladi.

Milliy identiklik o'ziga xoslik, uzluksizlik, barqarorlik, etnik va milliy identiklikni aniqlash va anglash tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, sifat jihatidan aniqlik bilan tavsiflanadi. Uning mohiyati shaxs chegaralaridan tashqariga chiqadi va ijtimoiy tizimning o'ziga xosligiga ta'sir qiladi. Milliy identiklik tushunchasi mentalitet, milliy dunyoqarash va millatning konseptual sohasi tushunchalari bilan o'zaro bog'liqdir: bir tomondan, ular tomonidan belgilanadi, boshqa tomondan, ularning shakllanishiga ta'sir qiladi. Yangi dunyo tartibini shakllantirish sharoitida, xalqaro maydondagi kurash markazi axborot makoniga o'tkazilganda, davlat institutlari ularni zararsizlantirish uchun milliy identiklikka ta'sir qiluvchi salbiy tendensiyalarni o'z vaqtida aniqlay olishi muhim ahamiyatga molik.

Arab davlatlarining tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida dunyoviy tamoyillar kuchayishi kuzatilsa-da, dinning jamiyatga ta'siri tufayli milliy mafkura va siyosatda diniy omil muhim o'rin tutmoqda. Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq va BAA o'rtasida mintaqaviy liderlik uchun raqobat va shia omili kabi murakkab geosiyosiy dinamika Fors ko'rfazi mintaqasida xavfsizlik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Bu vaziyatda arab davlatlari, xususan, Saudiya Arabistoni, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun integratsion jarayonlarni faollashtirishga intilmoqda. Biroq bunday sa'y-harakatlar turli ichki va tashqi omillar ta'sirida

murakkablashmoqda. Avvalgi mojarolar va hal etilmagan qarama-qarshilik siyosiy vaziyatni yana kuchaytirishi mumkin. Tanglikning katalizatori shialar omili bo‘lib, mamlakatlar va aholi o‘rtasida o‘ziga xos ishonchsizlik muhitini yaratadi. Arab mamlakatlaridagi shialarga tayanish va undan “beshinchi ustun” sifatida foydalanish Eron tashqi siyosiy maqsadlariga xizmat qiladi.

Mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda arab davlatlarining o‘zaro integratsiyasi muhim ahamiyatga molik. Shu munosabat bilan ar-Riyod Fors ko‘rfazidagi boshqa arab poytaxtlarini bu arab mamlakatlarining o‘zlari tomonidan tashqi yordamsiz mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashning yagona ishonchli usuli ekanligiga ishonitirishga harakat qilmoqda.

Ushbu bobda Saudiya Arabistoni milliy identikligining nazariy-konseptual jihatlarini institutsional asoslari tizimlashtiriladi, hozirgi kunda arab mamlakatlarida an‘anaviy va zamonaviy qadriyatlarining murakkab sintezi kuzatilayotgani, bunda islomiy qadriyatlar va zamonaviy demokratik tamoyillar uyg‘unlashuvi, an‘anaviy oila qadriyatlar va zamonaviy gender tengligi g‘oyalari o‘rtasidagi ziddiyat, qabilaviy tuzilmalar va zamonaviy davlat institutlari o‘rtasidagi munosabat, an‘anaviy ta‘lim tizimi va zamonaviy ilm-fan yutuqlarining integratsiyasi hamda milliy madaniyat va global madaniy oqimlar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir kabi jarayonlar namoyon bo‘layotgani, bu esa ko‘pincha ziddiyatli xarakterga ega bo‘lib, jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasida keskinlikni keltirib chiqarishga, ayni paytda bu uyg‘unlashuv jarayoni arab jamiyatlarining rivojlanishi va modernizatsiyasida muhim rol o‘ynayotgani borasida xulosa qilinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Saudiya Arabistoni milliy identikligini shakllantirish muammosi”** deb nomlanib, unda Saudiya milliy identikligining diniy komponenti, milliylik mafkurasi genezisi va evolyutsiyasi hamda milliy identiklikka tahdidlar sharoitida ta‘lim va madaniyatning o‘rni, shuningdek, Saudiya Arabistoni manfaatlarini ilgari surishda foydalaniladigan ichki va tashqi resurslar, imkoniyatlar tahlil qilingan.

Tadqiqotda keng faktologik materiallarga tayanib, amalga oshirilgan tahlillar asosida qayd etilishicha, globallashuv jarayoni Saudiya Arabistoni milliy identikligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda, bu esa ko‘plab ziddiyatlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu jarayon Podshohlik uchun an‘anaviy qadriyatlar va madaniy o‘ziga xoslikni yo‘qotish xavfini tug‘dirmoqda. Bunday vaziyatda Saudiya Arabistoni islom olami va arab sivilizatsiyasining yetakchisi maqomini saqlab qolishga intilmoqda. Ar-Riyod global tendensiyalarga moslashish va o‘z madaniy-tarixiy merosini saqlab qolish o‘rtasidagi muvozanatni topishga harakat qilmoqda.

Saudiya Arabistoni hozirda modernizatsiya va global integratsiya jarayonlarini o‘z madaniy va sivilizatsion identikligini saqlab qolish bilan uyg‘unlashtirish muammosi bilan ro‘baro‘ bo‘lmoqda. Bu muvozanatli yondashuvni ishlab chiqish mamlakat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Ushbu strategiyani amalga oshirish globallashuv tahdidlari sharoitida mamlakatning milliy birligi va mustaqilligini saqlashga xizmat qiladi va Saudiya Arabistonining nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham o‘z mavqeini mustahkamlashga yordam bermoqda.

Saudiya Arabistoni rahbariyati an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirgan, milliy identiklikni saqlagan holda global integratsiyaga qaratilgan, islom tamoyillariga asoslangan, iqtisodiy modernizatsiyani o'z ichiga olgan "Saudiya rivojlanish modeli"ni ilgari surmoqda. Bu model orqali mamlakat rahbariyati yangi milliy identiklikni shakllantirishga intilib, yoshlarda milliy g'ururni kuchaytirish, fan va san'at sohasidagi yutuqlarni targ'ib qilish, ommaviy axborot vositalarida mamlakatning ijobiy imijini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga musulmonchilikka, an'anaviy axloqqa zid bo'lgan G'arb qadriyatlari Podshohlikda tarqalishini cheklashga sa'y-harakat qilmoqda.

Saudiya Arabistonining milliylik mafkurasi murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda diniy, tarixiy va zamonaviy elementlar uyg'unlashgan. Bu mafkura mamlakatda milliy identiklikni shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. G'arb demokratiyasi xristian an'analari zaminida rivojlangan bo'lsa, arab-musulmon olamida, jumladan, Saudiya Arabistonida, demokratik tamoyillar islom madaniyati asosida shakllanmoqda. Bu holat mamlakatning o'ziga xos rivojlanish yo'lini belgilab bermoqda. Saudiya Arabistonining "Nigoh-2030" strategiyasi mamlakatning milliy va siyosiy identikligini shakllantirishda islomiy qadriyatlarning ustuvor ahamiyatini ta'kidlaydi.

Globalashuv jarayoni Saudiya Arabistonda madaniyat, ta'lim va fan sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon G'arb ommaviy madaniyati elementlarining Podshohlikka kirib kelishiga va an'anaviy axloqiy me'yorlarning muayyan darajada zaiflashuviga olib kelmoqda. Shu bilan birga, globalashuv mamlakatni modernizatsiya qilish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda. Biroq bu jarayonning salbiy oqibatlari ham mavjud bo'lib, gumanitar bilimlarga yetkazilayotgan zarar, yoshlarning ma'naviy qashshoqlashuvi va madaniy ildizlarning yo'qolish xavfi kuzatilmoqda. Shu bois bunday vaziyatda muvozanatli yondashuv talab etiladi. Bir tomondan, madaniy ochiqlikni ta'minlash, ikkinchi tomondan esa, milliy qadriyatlarni saqlab qolish va yosh avlodni shu ruhda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Saudiya rahbariyati an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasida muvozanat o'rnatishga intilar ekan, destruktiv tashqi ta'sirlarni cheklash bilan birga, jahon ilm-fani va madaniyatining ijobiy yutuqlari yoshlar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tibor qaratmoqda.

Saudiya Arabistonining milliy identiklikni saqlash va pragmatik islohotlar strategiyasini uyg'unlashtirish siyosati mamlakatning global o'zgarishlarga moslashuvini ta'minlamoqda. Bu yondashuv Ol Saud sulolasining oliy hokimiyat sifatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda, chunki Podshohlik siyosiy tuzilmasidagi har qanday qarama-qarshilik va kelishmovchilik davlat barqarorligiga tahdid solishi mumkin. Ol Saud sulolasi tashqi tahdidlar oldida birdamlik va vorisiylikni namoyish etishga intilmoqda. Podshohlikning modernizatsiya va an'anaviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, shuningdek, turli geosiyosik kuchlar o'rtasida muvozanat saqlash qobiliyati uning kelgusi o'n yilliklardagi taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omil bo'ladi.

Saudiya Arabistonining ta'lim sohasidagi islohotlari Podshohlik ichki siyosiy dinamikasini aks ettirish bilan birga, an'anaviy qadriyatlar tizimi va zamonaviy rivojlanish talablari o'rtasidagi muvozanatni topishga qaratilgan. Bu jarayon podshoh Salmon ibn Abdulaziz va valiahd Muhammad ibn Salmon rahbarligidagi modernizatorlar hamda konservativ ruhoniylar o'rtasidagi ta'sir uchun kurash kontekstida kechmoqda. Ta'limda milliylik g'oyalari targ'ib qilinishi Ol Saud oilasiga muxolif diniy isteblishment vakillarining Podshohlik ichki va tashqi siyosatiga ta'sirini cheklashga qaratilgan. Bu jarayon tarixiy urf-odatlar va an'analarni ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali amalga oshirilmoqda.

